

## MADIATA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MEDIA VOSITALARINING AHAMIYATI

Magistrant **Djumanov Xojiakbar**

Oriental (Al-Buxoriy) universiteti

### ABSTRAKT

*Chinoz tumani 8-maktab misolida mediata'limning ahamiyati o'rganilan va mediata'limni tashkil etishdagi muammolar ochib berilgan, shuningdek, multimedia vositalarida dars o'tishning samarasi, o'quvchilarning bilim olish va darslarda faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi so'rovnomalar asosida o'rganilgan. Maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatlaridan kelib chiqib, xulosa qismida taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mediata'lim, media vosita, multimedia*

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, ta'lim tizimida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish pedagogika fanining o'quvchilarning media-ta'lim masalalariga e'tiborini kuchaytirishning asosiy sabablari va dolzarbligi hisoblanadi.

Mediata'limning ahamiyati va uni qo'llab-quvvatlash YUNESKO qaror va tavsiyalarida bir necha bor qayd etilgan. YUNESKOning 2002 yilgi tavsiyalarida ta'kidlanishicha, "mediata'limi har bir mamlakat fuqarosining so'z va axborot erkinligiga bo'lgan asosiy huquqining bir qismi bo'lib, demokratiyani qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi. Turli mamlakatlarda media-ta'limning yondashuvlari va rivojlanishidagi farqlarni e'tirof etgan holda, uni imkon qadar milliy o'quv dasturlari doirasida, shuningdek, insonning butun hayoti davomida qo'shimcha, norasmiy ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash doirasida joriy etish tavsiya etiladi".<sup>24</sup>

<sup>24</sup> UNESCO. The Seville Recommendation. In: Youth Media Education. Paris: UNESCO, 2002.

Jahonda mediata'lim kundan kunga yangilanib, takomillashib bormoqda. Bu shubhasiz, texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, insonlar ayniqsa, yoshlar yurish-turishini, hayotini media(internet)siz tasavvur qilolmaydi. Darhaqiqat, hozirgi bolalar (10 yoshdan 16 yoshgacha) alohida qiziqishlarga ega. Ko'p jihatdan ular ijtimoiy tarmoqlar va Internet makonidagi axborot oqimiga bog'liq. Shu bois, yoshlarni darslarda faol bo'lishi va fanlarga qiziqishi va mavzularni o'zlashtirishi ko'p jihatdan o'qituvchi-pedagoglarning multimedidan keng foydalanishiga bog'liq bo'lmoqda. Multimedia loyihalaridan foydalanish nafaqat darsni ko'rgazmali va qiziqarli qiladi, balki insonning shaxsiy yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.<sup>25</sup>

Mamlakatimizda ta'lim sohasida keng miqiyosli islohotlar olib borilmoqda. Davlatimizning ta'lim sohasiga e'tibori yuksak bo'lib, ayniqsa, oxirgi yillarda jadal ta'lim siyosati va islohotlari olib borilayotganligiga har kuni guvoh bo'lmoqdamiz. Islohotlar zaminida inson manfaatlari, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajak avlodlarni munosib kasb egalari bo'lib yetishlari ko'zda tutilgan bo'lib, olib borilayotgan ishlar o'z natijalarini ko'rsata boshlaganini ta'kidlash o'rinlidir.

Ta'lim islohotlarida umumta'lim muassasalarida media vositalaridan hususan multimedia va boshqa turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bag'ishlangan keng qo'lamli ishlar haqida maqsad-vazifalar qo'yilayotganini ko'rishimiz mumkin. Hususan, davlat siyosatining muhim poydevori bo'lgan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da qo'yilgan 100 maqsaddan 10 ga yaqinida (41, 50, 70, 71, 72, 76, 78, 82, 89 va boshqa maqsadlarda) yoshlarning media bilan munosabatlarini ko'zda tutuvchi muhim ishlar belgilangan.<sup>26</sup>

Bundan tashqari, "2022 — 2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

<sup>25</sup> Духтаева А., Мультимедийные проекты как способ повышения медиаграмотности учеников средней общеобразовательной школы. Под ред. В. В. Тулупова. – Воронеж: Кварта, 2016. – С. 28.

<sup>26</sup> Batafsilroq qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA" 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

11.05.2022 yildagi PF-134-sonli Farmonida, Xalq ta'limi vazirligiga Farmonning b) bandida: maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali 2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish vazifasi yuklangan edi.<sup>27</sup>

Mamlakatimizda olib borilgan ta'lim uchun multimediadan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm va so'zlarni birlashtirishgan o'quvchilarda faqat so'zlardan foydalanadiganlarga qaraganda ko'proq ijobiy natijalar kuzatilgan.<sup>28</sup> Jumladan, multimedia vositalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish samarasi an'anaviy usulga qaraganda 2 barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin ekan. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% gacha oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.<sup>29</sup>

Tadqiqotchilar A.S. Amonova, N.B. Qobulovalarning yozishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qitish va o'rganish jarayonida multimedia qo'llash vositalarining ba'zi afzalliklari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Mavhum tushunchalarni aniq tarkibga aylantirish qobiliyati
2. Cheklangan vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni kamroq harakat bilan taqdim etish qobiliyati
3. Qobiliyatli o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini rag'batlan-tirish
4. O'qituvchiga o'quvchilarning ta'limdagi pozitsiyasini bilish qobiliyatini beradi.<sup>30</sup>

<sup>27</sup> Batafsilroq qarag: "2022 — 2026-YILLARDA XALQ TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MILLIY DASTURNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son, <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>

<sup>28</sup> Ta'limni boshqarish tizimlarida multimodal biometrikaga asoslangan talabalar davomatini o'lchash. Multimedia bo'yicha IEEE Xalqaro Simpoziumi (2009), 699-744-betlar. Iqtibos manbasi: Amonova A.S., Qobulova N.B., Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal, December 2021 / Volume 2, Issue 12, 528-b.

<sup>29</sup> Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.

<sup>30</sup> Amonova A.S., Qobulova N.B., 2012, 528-b.

Ta'lim sohasida mediata'limni joriy qilish borasida yetarlicha huquqiy asoslar va davlat dastrulari qabul qilingan hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarda uning foydasi va samarali jihatlari yuqoriligi asoslangan bo'lsa-da, umumta'lim muassasalarida media ta'limni tashkil etilishini qoniqarli dep bo'lmaydi. Shu bois, mazkur holatning sabablarini o'rganish uchun Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi maktab direktorlari va o'qituvchilaridan suhbat va so'rovnoma o'tkazish qaror qilindi.

Tajirba-sinov uchun 20 kishidan iborat maktab direktorlari va o'qituvchilarining mediata'limga nisbatan qarashlari, multimedia asosida dars o'tib-o'tmasligi so'raldi. Ishtirokchilar shartli ravishda A1-A4, D1, D2-4, E1-E4, F1-F4, K1-K4 va hakozi ko'rinishda belgilandi. Ishtirokchilardan quyidagilar so'raldi:

- Ishtirokchilar mediata'lim haqida nimani tushunadi?
- Mediasavodxonlik dars yoki kursi kerakmi va uning mazmuni va davomiyligi qancha bo'lishi lozim?
- Media savodxonligi va media vositalarning yo'qligi ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?

Birinchi savol yuzasidan, barcha ishtirokchilar mediata'lim nima ekanligi haqida tasavvurga ega. Biz malaka oshirish kurslarida ushbu mavzu bo'yicha ta'lim olishni xohlovchilar orasidan tanlab olingan namunaga duch kelganimiz sababli, ularning ushbu mavzu bo'yicha biron fikrlari bo'lishi tabiiydir. Biroq, berilgan javoblardagi diqqatga sazovor tafsilot shundaki, ishtirokchilar asosan an'anaviy ommaviy axborot vositalariga e'tibori ustunlik qiladi. Shuningdek, mediata'lim qanday o'tiladi va media turlari haqida hamma ishtirokchi ham yetarli bilimga ega emas.

Shu o'rinda birinchi savol yuzasidan berilgan javoblarning (hammasini yozishga hajm jihatdan imkoniyatimiz yoqligi uchun) ba'zilarini o'rtoqlashishni maqsadga muvofiq dep bilamiz:

*E.1.: Mediata'lim savodli bo'lishdan tashqari bilimdir. Bu zarurat, muntazam kitobxon yoshlarni tarbiyalash kerak.*

*E.2.: Farzandlarimizga internetdan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni o'rgatishda mediata'lim katta ahamiyatga ega.*

*E.3.: Bu asrda biz ommaviy axborot vositalarining doimiy bombardimoniga duchor bo'lamiz. Biz nima eshitamiz, nimaga ishonamiz, qaerdan va qanday o'rganamiz - bu mutlaqo yangi vaziyat. Shuning uchun mediatalim darslari men uchun juda muhim.*

*E.4.: Ota-onalar ham bizdan ko'p so'rashadi, farzandlari nimani ko'rishi kerak, qancha ko'rishi kerak. Juda ko'p bolalar telefon / televizor / kompyuterga qaram bo'lishadi. Buni qanday oldini olishimiz mumkin, bu vaqtlarni qanday qisqartirishimiz mumkin, men bu savollarga javoblarni o'rganmoqchiman.*

*D.1.: Internet davrida yashayotgan bir paytda mediata'limni nafaqat o'quvchi, balki ota-ona va o'qituvchi ham bilishi kerak, deb o'ylayman. Biz farzandlarimizni o'rgatishimiz va ularni himoya qilishimiz mumkinligini bilishimiz kerak.*

*D.4.: Internet tufayli kitob va gazeta o'qish odati ancha kamaydi. Yangiliklarni hech kim kuzatmaydi, umumiy madaniyatimiz pasayib ketdi. Bu nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham. Mediata'lim kursi doirasida shu savollarga javob topmoqchiman, balki kitobxonlik odatini qanday qilib olishimiz mumkin, bu odatni qanday kuchaytirishimiz mumkin.*

Birinchi savol yuzasidan ishtirokchilar tomonidan berilgan javoblarda e'tiborli bir jihat mobil telefonlarni (smartfonlar) zamonaviy aloqa va media vositasi sifatida emas ko'proq ahloq va tarbiya buzuvchi vosita sifatida ko'rishidir. Hususan, ishtirokchilardan:

*A.1.: Albatta, biz bolalarga nimani, qaerda va qanday foydalanishni o'rgatishimiz kerak. Misol uchun, men sinfimda uyali telefonlarni taqiqlayman. Bu darsning yaxlitligini buzadi. Bu menga ham, do'stlarimga ham hurmatsizlik.*

*K.2.: Ha, ular ham ko'p vaqtlarini uyali telefonlarida o'tkazishadi. Eski va an'anaviy bo'lgan ommaviy axborot vositalari sinfning yaxlitligiga ta'sir qilmasdi, ammo mobil telefonga qaramlilik tufayli bola uyga borganida televizor ko'ra olmaydi va uy vazifasini bajara olmaydi. Lekin hozir uni hatto darsda ham tashlagisi kelmaydi.*

Ikkinchi savolga javob bergan ishtirokchilar mediasavodxonlik kursi yoki darslarini ham o'qituvchilar hamda o'quvchilarga kerakligini va uni ko'proq o'tilishini ta'kidlashmoqda:

*E.4.: Masalan, o'qituvchi bolalarga kompyuterda nimanidir ko'rsatadi. Kompyuter xonasida mavjudlik muammosi bor, takrorlash uchun vaqt kerak, har bir bolaga kompyuter kerak, dastur kerak. Bular mavjud bo'lsa ham, haftasiga ikki soat bolaga texnologik ta'lim berish uchun sinf (o'quvchilar) hajmi kichik bo'lishi kerak.*

*A.3.: Mediasavodxonlik kursida o'qiydigan hamkasblar va o'quvchilar bilan gaplashamiz, kitobni o'qib, aytib beramiz, deyishadi. Yana nima qilish kerakligini bilishmaydi, amaliy mashg'ulotlar kam. To'g'rida, ikki soat ichida yana nima qilish mumkin?*

*K.3.: Men ham o'qituvchi, ham onaman. Shu sababdan men o'z farzandlarim uchun ham foydali bo'lishi uchun mediata'lim bo'yicha malaka oshirishni xohlardim. Chunki internetda har kuni yangi tahdid paydo bo'ladi, lekin biz bilmaymiz, ulgurolmaymiz. Ota-ona kelib so'raydi, nega bolam shunday deydi, javob bera olmaymiz. Agar media kursi berilsa va bizga beriladigan ta'lim tez-tez bo'lib tursa, biz ham bolani, ham ota-onani o'rgatishimiz mumkin.*

*D.3.: Ona kelib so'raydi; "Ustoz, men bu bolani kompyuterdan olib tashlay olmayapman. U nimani ko'rayotganini kim biladi? Men nima qilaman?" deydi. Ochig'i men ko'p aqlli fikir berolmayman. Men bu bolalar internetda qayerda ekanligini bilmayman va mening kompyuter bilimim shu dastur bu dastur deyish uchun yetarli emas. Shunga birinchi navbatda bizni o'zimizga ya'ni o'qituvchilarga mediata'lim lozim.*

*K.4.: Ba'zida o'quvchilar men bilmagan va tushunmaydigan tilda gaplashayotgandek tuyuladi. Ma'lum bo'lishicha, ular Internetda juda mashhur bo'lgan eskizlardan iqtibos keltirishgan. Aytgan ayrim gaplari yoshiga mos kelmaydi. Ammo ularni qanday blokirovka qilish, bu videolarga qayerdan kirishni bilish va o'rganishimiz kerak.*

A.2.: Men internetdan yarim soatda topgan narsani, o'quvchilar ikki daqiqada topadi. Bu juda yaxshi, lekin agar biz bu bolalarga nimadir o'rgatmoqchi bo'lsak, ular kabi tezkor bo'lishimiz kerak. Aks holda ular bizni jiddiy qabul qilishmaydi.

E.1.: Bolalar uy vazifalarini bajarishda internetdan ko'p foydalanadilar. Ular hamma narsaga kompyuter orqali kirishadi. Shuning uchun men hozir ulardan izoh so'rayman. Aks holda, ular uy vazifasiga nima topsa, qo'yishadi.

Uchinchi savol yani, mediasavodxonligi va media vositalarning yo'qligi ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatib-ko'rsatmasligi borasidagi savolga ishtirokchilarning javoblari quyidagicha bo'ldi:

A.1.: Bugungi kunda ta'lim sohasini texnologiyalaridan holi tushunish qiyin. O'quvchilar telefonga juda bog'lanib borayapti va bu jarayonni to'xtatishni iloji yoq. Shu bois, ta'limni texnologiyaga moslashtirish, u bilan bahamjihat shakllantirish orqali o'quvchilarni qalbiga va ongiga kirib borishimiz mumkin.

A.4.: Multimedia vositasida dars o'tish juda samarali ekanligiga ko'p guvoh bo'lganman. Yoshlar texnologiya yoshlaridir. Ularning fikri-hayolida internet oyunlari va kliplari. Ularni darsga jalb qilishda ularga yaqin tilda ya'ni multimedialar orqali dars o'tish bilan samaraga erishish mumkin. Busiz ta'lim sifati tushub ketadi.

K.1.: Hozirgi ta'lim talabi yoshlarga zamonaviy bilimlarni berishda interaktiv usullar, multimedia, OAVlari va boshqa ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdan iborat. Shu bois, ta'limni tashkil etishda media vositalaridan foydalanish ham bugungi kun talabi hamda mufavvaqiyat garovidir.

D.2.: Ochig'ini aytish kerak joylarda ta'lim sifati tushub ketgan, menimcha buning sabablaridan biri shu texnologiyalardan samarali foydalana olmayotganligimizdadir.

Yuqoridagi suhbat asosida tashkil etilgan so'rovnomalarga javoblardan ko'rishimiz mumkinki, ishtirokchi o'qituvchilar mediata'limini tashkil etishni yuqori baholaydi. Shu bilan birga, bu borada ko'plab kamchiliklar borligini ilgari suradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dunyoda va mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim siyosati va amaliyotlari, media savodxonligi har kuni o'zini yangilab borayotgan aloqa texnologiyalarining aql bovar qilmaydigan tezligi bilan kundan-kunga ahamiyatini oshirmoqda. Yangi aloqa texnologiyalari tezligiga moslashishda qoidalar va siyosatlardan tezroq bo'lgan oxirgi foydalanuvchi xabarni qabul qilish, ishlab chiqarish, ko'paytirish, baholash va tarqatish jarayonlarida doimiy ravishda yangilanadigan xatti-harakatlar modellari va usullarini namoyish etmoqda. Bu tez o'zgaruvchanlik va moslashuvchanlik, ayniqsa boshqaruv va tartibga soluvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi.

O'zbekistonda media savodxonligi ta'limiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2000-yillarning boshidan buyon bu masala davlat siyosati va tadqiqot sohasi sifatida qabul qilinganini, shuningdek, 2017-yildan e'tibor yanada oshganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ushbu mavzu bo'yicha nazariy ishlarni va xalqaro platformalardan olingan bilimlarni boshqarish, tartibga solish va amaliyotga kiritishda ba'zi muammolar mavjud. Bu kamchiliklar o'tkazilgan seminar va yig'ilishlarda ham, joylardagi o'rganishlar natijalarida ham o'z ifodasini topmoqda. Muvaffaqiyatsizliklarning boshida mediata'limining (texnologiya fani ko'rinishida) o'quv dasturiga amaliyotdan uzoq tarzda qo'shilishi va uning ikki soat bilan cheklanishidir. Biroq, mediata'limi maktabgacha yoshdagi davrdan boshlab berilishi kerak bo'lgan, o'zgaruvchan tarkibni ishlab chiqarish mexanizmlariga qarab kontekstda tez yangilanishi kerak bo'lgan va eng muhimi turli darslarga qo'llash uchun integratsiya qilinishi va turli darslarda ichkilashtirilishi kerak bo'lgan ta'lim to'plamidir.

Ushbu tadqiqotda o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, mediata'lim o'qituvchilar tomonidan muhim deb hisoblanadi va u haqida ko'proq bilishni xohlaydi. Biroq o'tkazilgan suhbatlar natijasida o'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'lami va ta'rifida ma'lum kamchiliklar borligi ma'lum bo'ldi. Bu mediasavodxonlikning yagona kurs bo'lishdan ko'ra, turli kurslarga integratsiyalashgan va butun ta'limga yoyiladigan modul sifatidagi zaruriyatiga eng



muhim to‘siqlardan biridir. Chunki mediasavodxonlik kompetensiyasiga ega bo‘lmagan pedagog ota-onalarning bu boradagi maslahat so‘rovlariga javob berishda, shuningdek, bolalarni shu yo‘nalishda tarbiyalashda qiynaladi. Boz ustiga bolalarni media faoliyatini nazorat qilish, ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish, darslarni mazmunli, samarali va qiziqarli tashkil etishda muammo va kamchiliklarga duch keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son, <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
3. UNESCO. The Seville Recommendation. In: Youth Media Education. Paris: UNESCO, 2002.
4. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
5. Amonova A.S., Qobulova N.B., Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining ahamiyati. “Science and Education” Scientific Journal, December 2021 / Volume 2, Issue 12, 528-b.
6. Духтаева А., Мультимедийные проекты как способ повышения медиаграмотности учеников средней общеобразовательной школы. Под ред. В. В. Тулупова. – Воронеж: Кварта, 2016. – С. 28.